


Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar- aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4944,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 586,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 123,1%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4357,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 450,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 %ga pasaygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Quva, Qoshtepa, Oltiariq va Bag'dod tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 %ga o'sdi va 586,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,9 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4357,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2,3 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,1 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ Kichik tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,8%), Sox' t (99,3%), Farg`ona (99,4%) Furqat t (98,5 %) Uchko`prik t (98,7%) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,9% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`na sh (28,0%), Qo`qon sh (15,8%), shaxarlari va Bag'dod tumani (18,0%) da kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	586,5	123,1	4357,7	102,3
shaharlar				
Farg'ona	350,25	142,2	901,9	100,0
Qo`qon	115,43	112,7	615,6	100,4
Quvasoy	2,74	36,5	109,9	104,8
Marg'ilon	22,11	58,4	363,7	107,9
tumanlar				
Oltiariq	5,59	94,6	181,3	100,5
Qo`shtepa	0,47	162,9	240,2	101,3
Bag`dod	33,08	230,5	150,3	105,3
Buvayda	3,16	111,2	175,2	100,8
Beshariq	2,89	93,1	179,3	102,2
Quva	18,09	270,1	227,5	102,3
Uchko`prik	2,36	113,4	182,5	108,9
Rishton	7,10	54,3	155,4	101,6
So`x	0,60	192,6	79,2	103,8
Toshloq	9,14	98,5	135,3	103,2
O`zbekiston	3,67	100,1	145,9	103,0
Farg'ona t	1,13	9,3	180,4	101,6
Dang'ara	3,13	107,3	109,6	100,3
Furqat	1,31	109,7	85,7	102,4
Yozyovon	4,23	96,1	138,9	103,7

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1353,9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-may oyida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Farg'ona (4454,4 ming.so`m), Qo'qon (2958,5 ming. so`m) va Marg'ilon (1679,6 ming.so`m) shaharlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar O'zbekiston t (646,9 ming.so`m), Dang'ara t (671,5 ming.so`m) va Toshloq t (739,7 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	1353,9	102,7
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	4454,4	107,2
Qo`qon	2958,5	101,0
Quvasoy	1239,2	98,7
Marg'ilon	1679,6	101,6
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	912,3	101,2
Qo`shtepa	1309,5	99,8
Bag`dod	882,4	109,7
Buvayda	809,7	100,7
Beshariq	823,4	101,7
Quva	980,8	103,7
Uchko`prik	836,8	99,6
Rishton	830,2	99,4
So`x	1056,3	99,2
Toshloq	739,7	100,1
O`zbekiston	646,9	100,5
Farg'ona t	879,3	100,6
Dang`ara	671,5	100,1
Furqat	758,5	102,2
Yozyovon	1338,9	101,2

Jumladan, 2019 yilning yanvar-may oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ni tashkil etib, 72,7 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,6 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-may)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2071,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 12,6 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra 1637,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 79,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon shahar (100,0%), Quvasoy shahar (100,0%), Qo'shtepa t (100,0%), Furqat t (100,0%), Beshariq t (100,0%) va Quva t (100,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonadlar
■ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 20,9 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona (50,2%), Qo'qon (12,0%) shaharida hamda Bog'dod (19,1%) tumanida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	2071,1	112,6	433,7	133,2	847,2	108,1
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	787,2	131,6	395,1	135,6	392,2	127,7
Qo'qon	267,3	114,2	32,0	192,1	235,3	108,2
Quvasoy	34,3	108,6	0,0	0,0	34,3	108,6
Marg'ilon	272,1	107,4	0,1	7,2	272,0	107,7
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	41,9	108,1	0,1	82,1	41,8	108,2
Qo'shtepa	2,8	108,8	0,0	0,0	2,8	0,0
Bag'dod	21,8	114,0	4,2	30,3	17,7	325,9
Buvayda	30,2	108,4	0,0	0,0	30,2	108,4
Beshariq	22,5	106,6	0,0	0,0	22,5	106,6
Quva	14,3	95,0	0,0	0,0	14,3	95,0
Uchko'prik	66,8	94,4	0,5	115,3	66,3	94,3
Rishton	9,0	105,3	0,2	70,4	8,8	106,6
So'x	1,3	109,7	0,1	30,2	1,3	127,1
Toshloq	107,7	108,1	1,0	109,8	106,8	108,1
O'zbekiston	257,1	88,8	0,1	30,3	257,0	88,9
Farg'ona t	16,6	105,1	0,1	35,7	16,5	106,7
Dang'ara	91,4	108,5	0,2	121,7	91,2	108,5
Furqat	10,4	91,1	0,0	0,0	10,4	91,1
Yozyovon	16,2	97,5	0,2	89,0	16,0	97,5

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Ozbekiston t (88,8%) Furqat t (91,1%), Uchkoprik t (94,4%) va Quva (95,0%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18